

**TA’LIM MUASSASALARINI BOSHQARISH VA UMUMKASBIY
FANLARNI O’QITISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA
YUTUQLARIDAN FOYDALANISH**

*Abdullayeva Xavoxon Yakubjonovna
Andijon davlat universiteti,
Umumiy pedagogika kafedrasida katta o’qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimini boshqarishda raqamli pedagogikaning o’rni va ahamiyati, rahbarlarning ta’lim muassasasini boshqarishda hamda umumkasbiy fanlarni o’qitishda raqamli pedagogika yutuqlarining o’rni, ulardan foydalanish haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ta’lim boshqaruvini takomillashtirish raqamli pedagogika, umumkasbiy fan, zamonaviy metod, raqamli pedagogika yutuqlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение цифровой педагогики в управлении системой образования, роль достижений цифровой педагогики в управлении образовательным учреждением руководителей и преподавании общепрофессиональных дисциплин, их использование.

Ключевые слова: совершенствование управления образованием цифровая педагогика, общепрофессиональная наука, современный метод, достижения цифровой педагогики.

Annotation: this article will talk about the role and importance of digital pedagogy in the management of the educational system, the role of digital pedagogical achievements in the management of the educational institution of leaders and the teaching of universal subjects, their use.

Keywords: improvement of Educational Management Digital Pedagogy, universal science, modern method, achievements of digital pedagogy.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham kirib borishi kuchaymoqda. Shuningdek, bunday taraqqiyot yo’lini o’z vaqtida tanlangan davlatlar muvaffaqiyatga erishmoqda. Aksincha, eski usulda ishlayotgan davlatlar esa taraqqiyotdan ortda qolmoqda. Bu tendensiya ta’lim muassasalariga uchun ham xosdir. O’rta ta’lim va oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari „AKT“ ta’limining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ko‘plab ta’lim muassasalarining o‘quv rejasida talaba va o‘quvchilarda zamonaviy apparat va texnik vositalardan hamda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional ma’lumotlarni saqlash, taqdim etish, qayta ishlash va uni uzatish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradigan axborot texnologiyalari bilan bog‘liq fanlar mavjud. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayonini elektron pochta, multimedia ilovalarini yaratish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minotsiz “prezentatsiyalar, video va audio materiallar”siz tasavvur qilish qiyin. Masalan, oliy o‘quv yurtlarida fanlar bo‘yicha ta’lim resurslarini va topshiriqlarini joylashtirish, talabalar bilimni nazorat qilish, o‘qituvchi bilan fikr almashinishni tashkil etish kabi vositalarni o‘zida mujassamlashtirilgan ta’limni boshqarish LMS „Learning Management System” tizimlarini joriy qilinmoqda.[1] Coursera, Udacity, FutureLearn,

Udemy kabi platformalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi yurtimizda ham oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish uchun mo‘ljallangan “HEMIS” milliy axborot tizimini yaratishga olib keldi va oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari ushbu tizimdan foydalanish imkoniyatlari yaratildi. Shuningdek, o‘rta ta’lim muassasalarida ham ayni shu vazifalarni bajarish uchun bugungi kunda “ta’lim.uz”, “edu.com”, “kundalik.com” singari ta’lim platformalari joriy etilgan va samarali ishlamoqda.

Hozirgi kunda umumkasbiy fanlarini o‘qitish jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

O‘quv-uslubiy elektron mahsulotlarning imkoniyatlari va kiritilgan ma’lumotlar asosida turlarga ajratish mumkin:

1. O‘quv darslikning elektron versiyasi. Namunaviy dasturga muvofiq fanning to‘liq kursini qamrab olgan elektron variant holdagi mahsulot (ma’ruzalar, matnlar va boshqalar).

2. Elektron darslik. O‘quv darslik elektron versiyasining takomillashtirilgan holatidir. Elektron darslik matni, gipermatn, giperizoh, grafik, diagramma, rasm, chizma va ularning animatsiyalaridan iborat (elektron darslik va elektron darslik versiyasi professor-o‘qituvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazishda va talabaning darsdan tashqari mustaqil ta’lim olishi uchun imkoniyat beradi).

3. O‘quv-uslubiy elektron qo‘llanma. O‘quv fanini qisman qamragan bo‘lib, matn, rasm, gipermatn, chizma va animatsiyalardan iborat.

4. O‘quv-uslubiy elektron ko‘rgazma. Ma’lum bir fan uchun kompyuterlashtirilgan, yaxshi dizaynga ega bo‘lgan miniplakatlar to‘plami. 2D grafik o‘lchamida tayyorlanadi (dars jarayonida multimedia proyektor orqali namoyish etiladi).

5. O‘quv-uslubiy kompyuter dasturi. Ma’lum fanning mavzusi keng yoritiladi. Ushbu dastur algoritmlashtirilgan bloklardan iborat. Har bir blok o‘zining mazmuniga, matni, grafikasi, animatsiya, o‘quv va nazorat qismidan iborat bo‘lgan dastur.

6. Multimediali o‘quv-uslubiy kompyuter dasturi va ensiklopediyalar. Ushbu o‘quv kompyuter dasturi matn, gipermatnlar, giperizohlar, grafik, diagrammalar, rasmlar, chizmalar, harakatli va ovozli videotasmalar, fotorasmlarni o‘z ichiga qamrab olgan mahsulot bo‘lib, 3D grafik o‘lchamida tayyorlanadi.

7. Kompyuterlashtirilgan videofilmlar. Ushbu mahsulotda sensorika ishlatiladi. Kompyuterlashtirilgan videofilmlar uchun skaner orqali raqamli videokamera va fotoapparatlardan matnlar, rasmlar, harakatlar kiritiladi. Undan tashqari, videomagnitofondan raqamli o‘zgartirgich orqali videofilmlar joylashtirish va tahrirlar kiritish imkonini beradi.

8. Kompyuterlashtirilgan laboratoriya ishlari. Berilgan mavzu bo‘yicha laboratoriya tajribalarini namoyish qilish, asboblarning ko‘rsatkichlari, vaqt o‘lchamlari va boshqa

jarayonlarni bog‘lovchi kompyuter dasturi. 3D grafik o‘lchamida tayyorlanadi (Laboratoriya asbob-uskunolari etishmaydigan joylarda ishlatish imkoniyatini beradi).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning barchasi raqamli pedagogikaning boshqaruv tizimida ham, umumkasbiy fanlarni o‘qitish jarayonida ham samarali foydalanilayotganidan darak beradi. Yaqin yillarda, raqamli pedagogikadan foydalanish orqali ta’lim tizimida ko‘plab yutuqlarga va imkoniyatlarga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlarini tasdiqlash to‘g‘risida“gi PF-6079-son qarori.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003.
3. Aglyamzyanovna G.N., Gumerova L.Z. Oliy maktabda raqamli pedagogika: talabalarning simulatsiya o‘rganishidan foydalanish. Rossiyada ta’lim va psixologiya jurnali. 2021, Tom 12, № 1-2, <http://riep.ru3>
4. Mamarajabov Sh. Дифференциаллашган таълим – бўлажак мутахассисларнинг умумкасбий компетенциясини шакллантириш омили сифатида. Архив научных исследований (2021).
5. <https://lex.uz/docs/-48401>
6. <https://lex.uz/docs/-5013007>